

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI	10
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	17
Yusupova Jamila Karamatdinovna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI	21
Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI	26
Eshonqulov Akmal Qudratovich XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	34
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	40
Akramova Feruza ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	52
Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI	59
Nazarov Elbek PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLISHNING BIOTEXNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH	66
Xidirova Saboxat Baxrillayevna ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА»	70
Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJIRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI	77
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	82
Normamatov A. A. IPAKCHILIK KLASSTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH	87
Elboyeva Shaxzoda Olimovna KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI	94
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li OLIV TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	101
Usmanov Sarvar Nigmatovich	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
Камариддинов Шохрух Акмал угли	
SANOAT KLASSTERLARIDA "SANOAT 4.0" TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI	113
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW	119
Normamatov A. A.	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
HUDUDIIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI	128
Maxmudova Nodira Uktamovna	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
Norqulov Shohbozbek Samandar ugli	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI	145
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
Kilichov Nazar Bafoyevich	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI	157
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH	164
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI	174
Ganiyev Botir Baxtiyorovich	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	178
Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	184
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI	190
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ	196
Нуралиева Мукаддас Мамуровна	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI	201
Xakimov Rashid	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI	206
Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH	212
Achilova Firuza, Zohidov Jamshid	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	217
Sattarov R.A.	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	222
Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович	
OPTIK ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI	230
Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH	235
Siroj Zarina Rustambekovna	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	242
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
HUNARMANDCHILIK KLASSTERLARI BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA: TURKIYA, MAROKASH VA FRANSIYA MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	249
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
BANK TIZIMIDA LIKVIDLILIK VA KAPITAL YETARLILIGI RISKLARINI BOSHQARISH MASALALARI ...	255
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ HUDUDLARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL OMILLARI	258
Saidakbarova Ziyoda Doniyor qizi	
BIOLOGIK AKTIVLARNI HAQQONIY QIYMATDA BAHOLASHNING KO'P OMILLI MODEL	266
Akhmetova Salima Seytovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY - USLUBIY JIHATLARI	272
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
YASHIL INVESTITSİYALAR MINTAQ A IQTISODIYOTINI BARQAROR DIVERSIFIKATSİYALASH VOSITASI SIFATIDA	281
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
DAVLAT MUASSASALARIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	287
Xusanova Muxsina Kasimovna	
O'ZBEKISTONDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGINI RIVOJLANISH QONUNIYATLARI VA UNDAGI TIZIMLI MUAMMOLAR TAHLILI	294
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD MANBALARI INDEKSI VA UNING RENTABELLIGIGA TA'SIRI	300
Ahmedov Komron Muhammad-Alievich	
KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARINING ISHLASH TAMOIYILLARI VA ULARNI QURILISH KORXONALARI AMALIYOTIGA JORIY ETISH MASALALARI	308
G'iyosov Ilxom Karimovich	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	316
Sattarov R.A.	



UY-JOY BOZORIDA BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI SEGMENTLAR O'RTASIDAGI NARX TAFOVUTLARI VA ULARNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNING IQTISODIY TAHLILI	322
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TABIY RESURLAR SAMARADORLIGI VA INSON KAPITALI INTEGRATSIYASINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON HUDUDLARI MISOLIDA	329
Yusubboyeva Dinora Quadrat qizi	
CHAKANA SAVDODA MAHSULOT TALABINI BASHORATLASH USULLARI	336
Mamatov Narzullo, Baxtiyorova Mohiruy	
SOLIQ AUDITIDAGI XAVF-XATARLARNI TAHLIL QILISH (RISK-ANALIZ) TIZIMI VA BUXGALTERNING HIMOYA TAKTIKASI	343
Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI	347
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
MA'LUMOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTDA TAQDIM ETISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	351
Kozimjonov Abrorbek	
TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI SANOAT ZONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	357
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA TRANSCHEGARAVIY SUG'URTA VA DAVLAT KAFOLATLARI MEXANIZMLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	364
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
20GL MARKALI PO'LATDAN TAYYORLANADIGAN YUK VAGONI YON RAMASI QUYMASIDA KIRISHUV G'OVAKLAR HOSIL BO'LISH QONUNIYATLARINI TADQIQ QILISH	368
Chorshanbiyeva Lobar, Turaxodjayev Nodir, Nuriddinov Otabek, Kenjayev Elshod	
O'ZGARUVCHAN TEZLIKLI, OG'MA QATOR QOZIQLI, SINUSOIDAL PLANKALI BARABANLARDA PAXTA BO'LAGINING ZARBALI TA'SIRI MODELI.....	374
Djurayev Anvar, Qorachayeva Oltinoy	
SANOAT KORXONALARINI ESG ASOSIDA JARAYONLI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	379
Azimova Maxfuza Rashidovna	
TURIZM SOHASIDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH VA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISHGA QARATILGAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH	386
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINI SOLIQQA TORTISHNING HUQUQIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	391
Sarsengalieva Albina, Sarsenbaev Bakhitjan	
DETERMINANTS OF THE SHADOW ECONOMY: A CONCEPTUAL CLASSIFICATION AND CROSS-COUNTRY EVIDENCE	395
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)	403
Makhmudova Munisaxon Abbos qizi	



ELEKTRON TIJORAT ORQALI CHAKANA SAVDONI OSHIRISH YO'LLARI (POYABZAL SANOATI MISOLIDA)

Makhmudova Munisaxon Abbas qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0007-1979-2908

Annotatsiya. Elektron tijorat vositalari orqali kichik biznes subyektlarining chakana savdo hajmini oshirishning samarali yo'llari poyabzal sanoati misolida tadqiq etilgan. 501 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan so'rovnomaga natijalari, multinomial logistik regressiya, polinom regressiya hamda Pearson χ^2 testi asosida iste'molchilarning onlayn savdo kanalini tanlashiga ta'sir etuvchi omillar empirik baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, onlayn savdo hajmini oshirishga xizmat qiluvchi beshta asosiy omil – o'lcham jadvalining aniqligi, mijozlar sharhlari, BNPL xizmatining mavjudligi, bepul yetkazib berish hamda mahsulotning video-taqdimoti – aniqlangan. KFK MChJ va "Zolushka Style" MChJ misolida 2030-yilgacha uchta stsenariy asosida prognoz ishlab chiqilgan hamda bazaviy stsenariyda elektron tijorat ulushining 9,4 foizga yetishi asoslangan. Chakana savdoni raqamlashtirishni jadallashtirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, chakana savdo, kichik biznes, poyabzal sanoati, omnichannel, marketplace, BNPL, raqamli transformatsiya, konversiya, ekonometrik prognoz.

Аннотация. Исследованы эффективные пути увеличения объема розничных продаж субъектов малого бизнеса с использованием инструментов электронной коммерции на примере обувной промышленности. На основе результатов опроса 501 респондента, мультиномиальной логистической регрессии, полиномиальной регрессии и критерия Пирсона χ^2 эмпирически оценены факторы, влияющие на выбор потребителями онлайн-каналов продаж. Установлено, что ключевыми факторами роста онлайн-продаж являются точность размерной сетки, отзывы покупателей, наличие сервиса BNPL, бесплатная доставка и видео-презентация товара. На примере ООО «КФК» и ООО «Zolushka Style» разработан трёхсценарный прогноз до 2030-го года, обосновывающий увеличение доли электронной коммерции до 9,4 % в базовом сценарии. Сформулированы практические рекомендации, направленные на цифровизацию розничной торговли.

Ключевые слова: электронная коммерция, розничная торговля, малый бизнес, обувная промышленность, омниканальность, маркетплейс, BNPL, цифровая трансформация, конверсия, эконометрический прогноз.

Abstract. Effective approaches to increasing the retail sales volume of small business entities through e-commerce tools are examined using the footwear industry as a case study. Based on a survey of 501 respondents, multinomial logistic regression, polynomial regression, and the Pearson χ^2 test, the factors influencing consumers' choice of online sales channels are empirically evaluated. The findings identify five key drivers of online sales growth: accurate size charts, customer reviews, BNPL availability, free delivery, and product video presentation. A three-scenario forecast until 2030 has been developed using KFK LLC and Zolushka Style LLC as case examples, demonstrating that the share of e-commerce may reach 9.4% under the baseline scenario. Practical recommendations aimed at accelerating the digitalization of retail trade are proposed.

Keywords: e-commerce, retail trade, small business, footwear industry, omnichannel, marketplace, BNPL, digital transformation, conversion, econometric forecasting.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar, internet infratuzilmasi, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari va marketplace platformalarining jadal rivojlanishi chakana savdoni tashkil etish mexanizmlarini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi kunda elektron tijorat nafaqat yirik korporatsiyalar, balki kichik biznes subyektlari uchun ham yangi bozor segmentlariga chiqish, savdo xarajatlarini kamaytirish, mijozlar bazasini kengaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Bu jarayonda onlayn platformalar, mobil savdo, raqamli to'lovlar va logistika xizmatlarining integratsiyasi kichik biznes subyektlarining chakana savdo hajmini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda.

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son¹ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son² Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son³ Qonuni mazkur sohani tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Mamlakatda internetdan foydalanuvchilar ulushi 2021-yildagi 76,6 foizdan 2025-yilga kelib 94,2 foizga yetgan, elektron tijorat bozori esa 2020-yildagi 200 mln dollar miqdoridan 2024-yilda 1,2 mlrd dollarga, ya'ni qariyb 6 barobarga oshgan.

Chakana savdoni elektron tijorat asosida rivojlantirish masalasi, ayniqsa, poyabzal segmentida alohida ahamiyat kasb etadi. Poyabzal mahsuloti iste'molchilar tomonidan faqat narxiga ko'ra emas, balki o'lchami, qulayligi, materiali sifati, dizayni, rangi va mavsumiy mosligi kabi ko'plab mezonlar asosida baholanadi. Shu bois, ushbu segmentda onlayn savdoni samarali tashkil etish uchun oddiy katalogning o'zi yetarli emas. Mahsulotning batafsil tavsifi, o'lcham jadvali, foto va videomateriallar, mijozlar sharhlari, qaytarish mexanizmi, tezkor yetkazib berish hamda xavfsiz to'lov tizimining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Mavjud sharoitda poyabzal ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarida onlayn savdo ulushi xalqaro o'rtacha ko'rsatkichlarga nisbatan rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi poyabzal sanoati misolida kichik biznes subyektlarining elektron tijorat vositalari orqali chakana savdo hajmini oshirish yo'llarini empirik tahlil asosida aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijorat va biznesni raqamlashtirish masalalari jahon ilmiy hamjamiyatida keng o'rganilgan. Elektron tijoratning nazariy asoslari R. Kalakota va A. Whinston, E. Turban, V. Zwass hamda D. Chaffeyning ilmiy ishlarida yoritilgan bo'lib, ularning ta'riflarida elektron tijorat, asosan, tranzaksiya jarayoni yoki savdo operatsiyasi sifatida talqin qilinadi. Platformalar iqtisodiyoti J.-Ch. Rochet va J. Tirole tomonidan ishlab chiqilgan ikki tomonlama bozorlar nazariyasida, iste'molchi xulq-atvori esa D. Kahneman va A. Tverskiyning qarorlar nazariyasida o'rganilgan. Raqamli transformatsiya jarayonlarini izohlashda G. Westerman, D. Bonnet va A. McAfee'ning raqamli yetuklik konsepsiyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MDH mamlakatlari olimlaridan I. T. Balabanov, O. A. Kobelev, R. H. Ayupov va G. R. Boltaboyeva elektron savdo mexanizmlari hamda kichik biznes integratsiyasi masalalarini tadqiq etganlar. Mamlakatimizda tadbirkorlikni elektron tijorat orqali rivojlantirish yo'nalishida S. S. G'ulomov, A. T. Kenjabayev, D. S. Qosimova, Sh. J. Ergashxodjayeva va T. G'. Nutfulloyevlarning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiq. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari tomonidan elektron tijorat vositalaridan foydalanish darajasi va ularning chakana savdoga ta'siri, ayniqsa, poyabzal sanoati kontekstida, yanada chuqur empirik tadqiq etishni talab etadi. Ushbu maqola aynan mazkur ilmiy yo'nalishni boyitishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli tahlil, kesimiy so'rovnoma, tanlama kuzatuv, ko'p omilli ekonometrik modellash va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan. Iste'molchilarning onlayn kanalni tanlashiga ta'sir etuvchi omillarni baholash maqsadida 501 nafar respondentni qamrab olgan so'rovnoma ($n = 501$) o'tkazilib, Stata 17.0 dasturida multinomial logistik regressiya modeli qurilgan. Platforma tanlovi bilan xarid jarayonida uchraydigan muammolar o'rtasidagi bog'liqlik Pearson χ^2 testi yordamida tekshirilgan. Chakana savdo hajmining istiqboldagi dinamikasi polinom regressiya hamda ko'p o'zgaruvchili regressiya modellari asosida uchta stsenariy (pessimistik, bazaviy va optimistik) bo'yicha prognoz qilingan. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, "O'zcharsanoat" uyushmasi, KPMG, AQSh Xalqaro savdo idorasi (ITA), shuningdek, KFK MChJ va "Zolushka Style" MChJ korxonalarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda elektron tijorat muhiti **2020–2024-yillarda** jadal rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Internet

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3744594>
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
- 3 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>



qamrovining kengayishi, mobil ulanishlar sonining ortishi hamda faol marketplace platformalarining ko'payishi chakana savdoning raqamli kanallarga ko'chishi uchun zarur infratuzilmaning shakllanishiga xizmat qildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda elektron tijorat muhitining asosiy ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar)⁴

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Internet foydalanuvchilari, aholining %	76,6	80,0	83,0	87,0	87,2
Elektron tijorat bozori hajmi, mlrd USD	0,20	0,43	0,54	0,70	1,20
Faol marketplace platformalari soni	10	20	35	50	60
Moda va kiyim-kechak ulushi, %	15	17	18	19	19

So'rovnoma natijalari (Pearson $\chi^2 = 64,62$; $p < 0,001$) iste'molchilarning onlayn poyabzal xaridi jarayonida bir qator muhim omillarga duch kelishini ko'rsatdi. Respondentlarning 49,3 foizi poyabzalni Uzum Market platformasi orqali xarid qiladi. Onlayn xarid jarayonida kuzatilgan asosiy omillar **2-jadvalda** keltirilgan.

2-jadval

Onlayn poyabzal xaridida iste'molchilar duch keladigan asosiy omillar (n = 501)⁵

Muammo	Respondentlar soni	Ulushi, %
Kiyib ko'rish imkoniyatining yo'qligi	126	25,1
Mahsulot sifatini oldindan tekshirish imkoniyatining cheklanganligi	116	23,2
Noto'g'ri mahsulot yetkazib berilishi	94	18,8
Noto'g'ri rang yoki o'lcham	83	16,6
Maxfiylik va xavfsizlik masalalari	82	16,4
Jami	501	100,0

Multinomial logistik regressiya modeli (Pseudo $R^2 = 0,181$; $\chi^2 = 181,617$; $p < 0,001$; n = 501) iste'molchilarning onlayn kanalni tanlashiga ta'sir etuvchi to'rtta statistik jihatdan ahamiyatli omilni aniqladi. Model natijalari **3-jadvalda** keltirilgan.

3-jadval. Onlayn kanal tanloviga ta'sir etuvchi omillar (multinomial logistik regressiya natijalari)⁶

Omil	β koef.	p-qiymat	Talqin
Xarid chastotasi (har oylik xaridor)	-1,413	0,006	Onlayn kanalni tanlash ehtimoli 75 foizga yuqori
Payme/BNPL foydalanuvchisi	-1,156	0,012	Oflayn xaridni tanlash ehtimoli 68 foizga past
Omnichannel indeksi	1,848	<0,001	Onlayn kanalni tanlash ehtimolini 6,35 barobar oshiradi
Dizayn omili	1,322	0,011	Omnichannel kanalni tanlash ehtimolini 3,7 barobar oshiradi

Empirik tahlil natijalariga ko'ra, poyabzal sektorida onlayn savdoni rivojlantirishga xizmat qiluvchi beshta asosiy omil aniqlandi. Birinchidan, o'lcham jadvalining aniqligi savdo hajmini **28–35 foizga** oshirib, mahsulotni qaytarish darajasini kamaytiradi. Ikkinchidan, mijozlar sharhlari va reytinglari konversiya darajasini **20–30 foizga** oshiradi. Uchinchidan, BNPL (bo'lib to'lash) imkoniyatining mavjudligi o'rtacha xarid hajmini **40–55 foizga** oshiradi. To'rtinchidan, bepul va tezkor yetkazib berish takroriy xaridlar ulushini **25 foizga** oshiradi. Beshinchidan, mahsulotning video va AR-ko'rinishi mahsulotni qaytarish darajasini **30–40 foizga** kamaytirib, konversiya darajasini **20–28 foizga** oshiradi. Mazkur omillar kichik biznes subyektlari uchun chakana savdoni raqamli kanallar orqali rivojlantirishning muhim vositalari sifatida ilmiy asoslandi.

Korxonalar miqyosidagi qiyosiy tahlil ishlab chiqarish hajmi raqamli yetuklik darajasini bevosita belgilamasligini ko'rsatdi. Ishlab chiqarish hajmi yirik bo'lgan **KFK MChJda** onlayn savdo ulushi atigi **3,2 foizni** tashkil etib, savdo asosan marketplace platformasi (Uzum Market – **57,1 foiz**) orqali amalga oshiriladi. Aksincha, ishlab chiqarish hajmi nisbatan kichik bo'lgan **“Zolushka Style” MChJda** onlayn savdo ulushi **30,3 foizga** yetgan bo'lib, bunda yetakchi savdo kanallari sifatida ijtimoiy tarmoqlar (Telegram – **45,0 foiz**, Instagram – **30,0 foiz**) ustunlik qiladi. Mazkur farq kichik korxonalarning oflayn savdo tarmoqlari nisbatan cheklanganligi sababli

4 Manba: DataReportal (2025); AQSh ITA (2025); KPMG (2023); Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5 Manba: muallif so'rovnoma natijalari (n=501, 2024-yil) asosida.

6 Manba: muallif hisob-kitoblari (Stata 17.0) asosida.

kam xarajatli ijtimoiy savdo kanallaridan faolroq foydalanishini, yirik korxonalar esa shakllangan oflayn savdo tarmog'i bilan bir qatorda onlayn kanallarni yanada keng rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Chakanasavdohajminingistiqboldagidynamikasipolinomregressiyamodeli $[S(t)=0,1575t^2-0,1525t-0,4975; R^2 = 0,9919]$ asosida **2030-yilgacha** prognoz qilindi (4-jadval). Bazaviy stsenariyga ko'ra, **KFK MChJ** uchun onlayn savdo hajmi **2030-yilga** kelib **16,56 mlrd so'mga**, ya'ni **2025-yilga** nisbatan deyarli 4 barobarga oshishi kutilmoqda. O'zbekistonda elektron tijorat ulushining prognozi $[R^2 = 0,9983]$ ham bazaviy stsenariyda **2030-yilga** kelib **9,4 foizga** yetishini ko'rsatdi. Ushbu natija O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son⁷ Farmonida belgilangan ustuvor yo'nalishlarga mos keladi.

4-jadval

KFK MChJ uchun onlayn savdo hajmi prognozi (2026–2030-yillar, mlrd so'm)⁸

Stsenariy	2026	2027	2028	2029	2030
Pessimistik	3,90	5,30	6,91	8,73	10,76
Bazaviy	6,01	8,16	10,63	13,43	16,56
Optimistik	9,31	12,64	16,48	20,82	25,66

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari poyabzal sanoati kichik biznesida elektron tijorat orqali chakana savdoni oshirish bo'yicha quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, iste'molchilarning onlayn kanalni tanlashi xarid chastotasi, raqamli to'lov odatlari, omnichannel yondashuv hamda dizaynga bo'lgan e'tibor kabi omillar bilan statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqligi aniqlandi. Ikkinchidan, onlayn savdoni rivojlantirishda o'lcham jadvalining aniqligi, mijozlar sharhlari, BNPL tizimi, bepul yetkazib berish hamda video/AR-kontent hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Uchinchidan, korxoning ishlab chiqarish hajmi emas, balki uning raqamli yetuklik darajasi onlayn savdo ulushini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, chakana savdoni elektron tijorat orqali rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Kichik biznes subyektlari uchun marketplace integratsiyasining to'rt bosqichli mexanizmini (audit → strategiya va platforma tanlovi → operatsion ulanish → o'sish va kengayish) bosqichma-bosqich joriy etish.

Poyabzal savdosida **EU/RU/USA** o'lcham jadvalini standartlashtirish hamda AR asosidagi virtual kiyib ko'rish texnologiyasini joriy etish orqali mahsulotlarni qaytarish darajasini kamaytirish va konversiya ko'rsatkichini oshirish.

Payme, Click va Alif kabi provayderlar bilan hamkorlikda BNPL (bo'lib to'lash) tizimini integratsiyalash orqali o'rtacha chek hajmi hamda takroriy xaridlar ulushini oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida olti yo'nalishli qo'llab-quvvatlash mexanizmini, ya'ni raqamli onboarding, ko'nikmalar markazi, mahsulot kontentini standartlashtirish, eksport platformasi, logistika infratuzilmasi hamda moliyaviy subsidiyalarni joriy etish.

CRM tizimlari va Telegram-botlar asosida takroriy xaridlarni rag'batlantirish hamda **"Made in Uzbekistan"** milliy brend strategiyasiga integratsiyalash orqali mijozning umrlik qiymatini (CLV) oshirish.

Mazkur taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi kichik biznes subyektlarining chakana savdo hajmini oshirish, bozor qamrovini kengaytirish hamda ularning raqamli iqtisodiyotga integratsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O'RB-792-son "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3724-son "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: <https://lex.uz/docs/-3744594>
4. Kalakota R., Whinston A. B. *Frontiers of Electronic Commerce*. – Reading, Mass.: Addison-Wesley, 1996. – 431 p.
5. Turban E., King D., Viehland D., Lee J. *Electronic Commerce: A Managerial Perspective*. – Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall, 2006. – 792 p.
6. Zwass V. *Electronic Commerce: Structures and Issues // International Journal of Electronic Commerce*. – 1996. – Vol. 1, No. 1. – P. 3–23.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

⁸ Manba: korxona ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



7. Chaffey D. *E-Business and E-Commerce Management*. – 4th ed. – Harlow: FT Prentice Hall, 2009.
8. Westerman G., Bonnet D., McAfee A. *Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation*. – Boston: Harvard Business Review Press, 2014.
9. Rochet J.-C., Tirole J. *Platform Competition in Two-Sided Markets // Journal of the European Economic Association*. – 2003. – Vol. 1, No. 4. – P. 990–1029.
10. Кобелев О. А. *Электронная коммерция: учебное пособие*. – 5-е изд. – М.: Дашков и К, 2020. – 682 с.
11. Аюпов Р. Х., Болтабоева Г. Р. *Рақамли иқтисодиёт асослари: дарслик*. – Тошкент: ТМИ, 2020. – 575 б.
12. Qosimova D. S. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: darslik*. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish” NMU, 2022. – 328 b.
13. Ergashxodjayeva Sh. J., Qosimova M. S., Yusupov M. A. *Marketing: darslik*. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2018. – 361 b.
14. AQSh Xalqaro Savdo Idorasi (ITA). *Uzbekistan E-Commerce Guide*. – 2025. – trade.gov.
15. KPMG. *E-commerce in Uzbekistan*. – 2023. – kpmg.com.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100